


ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,  
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР  
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК  
МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР  
ТЎПЛАМИ  
**XIII**



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,  
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР ВА  
АДАБИЁТШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

**XIII**



"Дурдона" нашриёти  
Бухоро – 2022

81.2Ў36-3

T 49

Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари: материаллар тўплами, VII; тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.И.Гадоева; масъул муҳаррир: З.И.Расулов; Тошкент: "Дурдона" нашриёти, 2022 йил. 252 бет.

КБК 81.2Ў36-3  
83.3(5Ў)

Тўпланда Республикамиз олимлари, илмий тадқиқотчиларининг филологик мавзулар доирасидаги, жумладан, муайян тил доирасидаги лингвистик қарашлари; қиёсий–типологик изланишлари; тилларни ўқитиш назарияси ва миллат, миллий маданиятнинг амалий глобаллашуви даврида тилдан фойдаланиш муаммолари, шунингдек, тилларни ўқитиш усулиёти; адабиётшунослик, таржимашунослик истиқболлари борасидаги фикр-мулоҳазалари ўз ифодасини тошган.

Тўпланим филологик йўналишдаги илмий изланувчилар, катта илмий ходим изланувчилар, тадқиқотчилар, магистрантлар ва талабаларга мўлжалланган.

**Таҳрир ҳайъати:**

*Хамидов О.Х., (БухДУ профессори), Қаҳҳоров О.С. (БухДУ доценти), Ҳайдаров А. (БухДУ доценти.), М.И.Гадоева (БухДУ доценти), масъул муҳаррир Расулов З. (БухДУ доценти), масъул котиб Қобилова Н.С. (БухДУ доценти)*

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:**  
**филология фаълари номзоди, доцент М.И.Гадоева**

**Тақризчилар:**

**Давлатова М.Х.,** Бухоро давлат тиббиёт институти инглиз тили кафедраси доценти

**Қобилова Н.С.,** БухДУ Инглиз тилшунослиги кафедраси доценти

Тўпландан ўрин олган мақолалардаги факт ва рақамларнинг ҳаққонийлиги, мазмуни, савияси ва саводхонлиги учун муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

БухДУ Илмий кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия этилган (5-сонли баённома, 29 декабрь, 2021 йил).

**ISBN 978-9943-5080-6-4**



---

## INGLIZ TILIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA QISQA HIKOYALARNING AHAMIYATI

**Qodirova Holida Xayriddin qizi**

Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qıtuvchisi

[kholidakodirova@gmail.com](mailto:kholidakodirova@gmail.com)

+998977318283

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilida o'qish ko'nikmasini qisqa hikoyalar orqali o'qitishning samarali yo'llari haqida so'z yuritiladi. Qisqa hikoyalar orqali o'qitishning foydali tomonlari, ularni til ko'nikmalarini o'stirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish kompetensiyasi, qisqa hikoyalar, kognitiv ehtiyoj, konstruktiv yondashuv, PQR usuli, kontent.

Ma'lumki, o'qish axborot olishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Uning xorijiy tillarni o'qitishdagi roli bugungi kunda ayniqsa katta ahamiyatga ega, chunki aynan shu narsa insonga shaxsiy kognitiv ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi. O'qish orqali matndan olinadigan ma'lumot insoniyat tomonidan to'plangan tajribani ijtimoiy, mehnat va madaniy faoliyatning eng xilma-xil sohalarida uzatish va o'zlashtirish mumkin. Shu munosabat bilan o'qishning natijasi, ya'ni olingan ma'lumotlar alohida rol o'ynaydi. U aqlni sayqallaydi va hislarni charxlaydi. Shu bilan birga, tahlil, sintez, umumlashtirish, xulosa chiqarish va bashorat qilishni o'z ichiga olgan o'qish jarayonining o'zi katta tarbiyaviy va ta'limiy rol o'ynaydi. Bolalar chet tilni hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish xohlagan holda, ularda o'zlari ham ishtirok etib yaxshi o'rganishadi. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar ular uchun qiziqarli va muhim bo'lishi kerak. O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidck o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi.

Boshlang'ich sinflarda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli bo'ladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili o'rgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his etishadi.

O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, o'z sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkoni bo'lsa, o'sha chet tilida bo'lishi kerak. Bolalar nafaqat yo'riqnomalarni tushunish bilan cheklanmasdan, balki chet tilida o'z ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan odam (ona tili ingliz tili bo'lgan) lar bilan muloqot, sinfga taklif etish ham foydali. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bolalar imkon qadar ko'proq tilda o'zlari so'zlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari



---

kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim barcha ta'lim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'quvchi turlari alohida e'tibor talab qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq bo'ladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchilarning yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir. Ularni har bir bolada boshdan boshlab rag'batlantirish kerak. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak.

Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutq doimo takrorlanadi va yana bir kontekstda qayta ishlatiladi. Kurslar spiral bo'lib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismidir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rganish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq o'rganishning asosiy sabablari hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilarning e'tibori asosan tilning mazmuniga, ahamiyatiga qaratilishi kerak. O'quvchilar e'tiborini birinchi navbatda tilning kontent mazmuniga qaratishi kerak. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rganish yana o'rganganlarni qo'llash uchun imkoniyat bor-yo'qligiga ham bog'liqdir. O'quvchilarga shunday vazifalar berish kerakki, toki ular o'rgangan bilimlarini dars jarayonida amaga oshirish, qo'llashga majbur bo'lishsin.

O'zaro muloqot qilish imkoniyatlari til ko'nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa o'quvchilar tilning ma'nosini amalda qo'llay olishsa, tilni o'rganish muvaffaqiyatli o'rganishga imkon yaratadi. O'qituvchi tomonidan ushbu jarayon uchun ma'no va muzokaralar o'tkazish imkoniyati muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy shartlari hisoblanadi. Chet tili ta'limi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va ko'nikmalrni o'rganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak.

Qisqa hikoyalar orqali o'qishni rivojlantirishning o'ziga xos strategiyalari bor:

- PQR usuli - bu tushunchani takomillashtirish va o'qilgan narsalar haqida eslashning yaxshi usuli.

- Hikoyani o'qish va so'zlab yoritib berishi - bu o'quvchining hikoyani o'qigandan so'ng o'zlarining his tuyg'ularini bayon etishlari va o'qituvchining "Bu hikoya sizning o'z tajribangiz bilan qanday bog'liqligini tushuntirib bering" kabi savoliga javob berishi mumkin.

- Hikoyani ovoz chiqargan holda o'qish - bu usul o'qish ko'nikmasini tezroq rivojlantirishga va o'qilgan hikoyaning yaxshiroq esda qolishiga yordam beradi.

O'qishni rivojlantirish uchun qisqa hikoyalardan foydalanishning afzalliklari juda ko'p. O'rgatish uchun qisqa hikoyalardan foydalanishni targ'ib qiluvchi tadqiqotchilar ESL/EFL qisqa hikoyalarning bir qancha afzalliklarini sanab o'tadi. Bularga motivatsion, adabiy, madaniy va yuqori darajadagi fikrlash

foydalanishi mumkin bo'ladi. Qisqa hikoyalarni orqali ma'lumotlarni yulduzshoq kiyim etish mumkin. Ingliz tilida o'qishga o'rgatishda sevimli ertaklar va hikoyalar turli matnlarni ko'proq o'qish maslahat beriladi. Agar o'qilgan kitoblarda rang-barang rasmlar bo'lsa o'qilgan ma'lumot esda qolishi judayam oson bo'ladi.

Fikr so'ngida shuni aytish joizki, ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda qisqa hikoyalarning o'rni juda katta. Qisqa hikoyalar orqali chet tillarini endi o'rganishni boshlagan o'quvchilar o'qish ko'nikmalarini tezroq yaxshilashlari mumkin bo'ladi. O'qituvchilarga ushbu usul orqali o'quvchilarini o'qish ko'nikmalarini yaxshilashlari tavsiya etiladi. Hikoyalar orqali chet tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish juda qiziqarli bo'ladi chunki hikoya mazmuniga o'quvchilarning qiziqishi ortishi o'qishi o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshishiga xizmat qiladi. Qisqa hikoyalar orqali chet tillarini endi o'rganishni boshlagan o'quvchilar o'qish ko'nikmalarini tezroq yaxshilashlari mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adrian Doff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge. University Press, 1988.
2. Arends R. I. Learning to Teach. –New York: McGraw-Hill Inc., 1994. –549 p
3. Bellack A. A. The Language of the Classroom. –New York: Teachers College Press, 1996. –274 p.
4. Ko'chiboyev A.K. Xorijiy tillarga o'rgatishning kommunikativ metodikasi. Samarqand-2010, 70-77 bet
5. Pressley, M. va Wharton-McDonald, R. (1997). Malakali tushunish va o'qitish yo'li bilan rivojlanishi. Maktab Psixologiya Tadqiqoti, 26 (3), 448-467.
6. Richards G. C. and Rodgers Th.S Approaches and Methods in Lauange teaching.
7. Sesnan, B. (1997). How to teach English. Oxford: Oxford University Press.
8. Мустафоева, С. С. Чет tillarni o'rganish va o'qitish: bolalar tillarni qanday o'rganishadi? / С. С. Мустафоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 22 (260). — С. 685-686. — URL: <https://moluch.ru/archive/260/59757/> (дата обращения: 13.12.2021).
9. Отабосва М. Р. Чет tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — с. 36-37.

### **THE RELATIONSHIP BETWEEN EUPHEMISM AND TABOO** **Ruziyeva Nafisa Zarifovna (Bukhara State University)**

Language is the transporter of culture and a significant piece of the way of life. Not exclusively would language be able to pass on data; however it is a social peculiarity just as a social conduct. Euphemism and taboo words are two normal and firmly related language peculiarities, and they are additionally a typical social peculiarity. In day by day correspondence, individuals generally have various thoughts. Now and again they are reluctant or unfit to

communicate their desires straightforwardly, hence in this way restrictions are delivered. Euphemism turns into the most ideal decision for articulation when pondering how to precisely communicate things or things that individuals would rather not express straightforwardly. Subsequently, a few researchers have concentrated on Euphemism and taboo words from many points.

Euphemisms are the words and word combination which reflects the beauty of tabooed words by replacing them in some societies where it reflects

